

O'QUVCHILARNI TARBIYALASHDA MAKTAB VA OILANING HAMKORLIGI

Ashurova Yulduz Zoirovna

Buxoro viloyati Romitan tumani MMTBga qarashli

22 -umumiy o'rta ta'lim maktab psixologi

Annotatsiya: Oilada doimo tinchlik bo'lishi, bo'sh vaqtini faol tashkil etish, madaniyat, san'at maskanlariga oilaviy sayohatlar uyushtirish - oila barkamolligini ta'minlashga xizmat qiladi. Oilada bolaning to'g'ri tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri tarbiyada hamjihatlikdir. Ta'lim tarbiya masalasi murakkab bo'lib, bunday ulkan mas'uliyatli, sharaflı ishni oila, mahalla, maktab va keng jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borish muhim o'rin egallaydi.

Kalit so'zlar: oila, bola, mahalla, vatanparvarlik, maktab, hamkorlik, ota-ona, mardlik, mehr-muhabbat

Mamlakatimizda bolalar va onalarga bo'lgan e'tibor tobora ortib, bu yo'nalishdagi ishlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. "Jamiki ezgulik – bolalar uchun" degan g'oya jamiyatda yanada keng jarang topmoqda. So'nggi yillarda ushbu yo'nalishda qabul qilingan qaror va farmonlar bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi. Ma'lumki, bola maktabga qadam qo'yishidan avval, shuningdek, o'quv davrida ham, asosan oilaviy muhitda tarbiyalanadi. Oila esa davlatning ijtimoiy negizi sifatida bolalarning dunyoqarashi, xulq-atvori va estetik qarashlariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, oila a'zolari o'rtasidagi ma'naviy uyg'unlik yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashning boshlang'ich va asosiy omillaridan biri sanaladi. Yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazish jarayoni, avvalo, maktab bilan oilaning uzviy hamkorligiga bog'liq. Tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun ta'lim muassasalari ota-onalar bilan mustahkam

aloqada bo'lishi lozim. Shu bois, ota-onalar o'rtasida pedagogik targ'ibot ishlarini kengaytirish, ularni maktabning faol hamkoriga aylantirish, bolalarning darsdan tashqari faoliyatini mazmunli tashkil etishda ularning ishtirokini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy jamiyatning tezkor rivojlanishi va kasb-hunar faoliyatining tobora murakkablashuvi natijasida shaxs ongiga bevosita yoki bilvosita ta'sir etuvchi omillar kuchaymoqda. Shunday sharoitda insonning faqat bilim va malakasi emas, balki uning axloqiy, estetik, emotsional va intellektual madaniyati ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu kabi fazilatlarning shakllanishi, eng avvalo, oilaviy tarbiya orqali boshlanadi. Garchi ijtimoiy muhit va ta'lim tizimi bu jarayonda muhim rol o'ynasa-da, inson kamolotining poydevori aynan oilada qo'yiladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, oilaviy tarbiya pedagogika fanining murakkab va ko'p qirrali muammolaridan biri hisoblanadi. Har bir oila o'ziga xos ijtimoiy guruh bo'lib, undagi tarbiyaviy faoliyat bu guruhning o'ziga xos xususiyatlariga asoslanadi. Shu sababli, maktab va oilaning tarbiyaviy hamkorligi har bir bola shaxsining to'laqonli shakllanishida hal qiluvchi o'rin tutadi.

Buyuk mutafakkir bobokalonimiz Mirzo Ulug'bek "Oilada, ayniqsa, o'qimishli ota-onalar farzandlarining chinakam inson bo'lib kamol topishiga alohida e'tibor berishlari zarur" deb ta'kidlaganlar. Ushbu fikr zamirida tarbiyaning boshlang'ich manbai va poydevori sifatida oilaning hal qiluvchi roli mujassam. Har bir ota-ona farzandining odob-axloq, insoniylik, ma'naviy va axloqiy kamolotiga mas'ul bo'lib, bu jarayonda ularga shaxsiy vaqt ajratishi, yuksak qadriyatlar asosida yo'l ko'rsata olishi lozim. Ajdodlarimiz tomonidan yaratib qoldirilgan tarbiyaviy meros bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Insonparvarlik, vatanparvarlik, oqibatlilik, mehr-muhabbat, yuksak axloqiy fazilatlar xalqimizning uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lida shakllangan bebaho boyliklaridandir. Bugungi kunda bolalarning ta'lim-tarbiyasiga, ularning kasb-hunar egallab, jahon miqyosidagi raqobatbardosh shaxs sifatida kamol topishlariga asosiy mas'uliyat ota-onalar zimmasiga tushadi. Har bir inson dunyoga

kelganidan so'ng, uning xulq-atvori, axloqiy qarashlari va insoniy fazilatlari avvalo oilaviy muhitda shakllanadi. Shu bois, ota-onalar tarbiya jarayonining asosiy tamoyillarini, pedagogik qonuniyatlarini chuqur bilib, ularni amaliyotda to'g'ri qo'llay olishlari talab etiladi. Chunki oilaviy tarbiya – bu faqatgina ma'lum qoidalarga asoslangan emas, balki shaxsiy mas'uliyat, madaniy daraja va tarbiyaviy mahoratni talab qiluvchi murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayondir.

Bola atrofidagi ijtimoiy muhit — ya'ni odamlar, voqealar va kundalik hayot hodisalari — uning ongida, dunyoqarashida va xulq-atvorida iz qoldirib, shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Oila tarbiyasining samaradorligi esa, ota-onaning bilimdonligi, madaniyati, farzandiga bo'lgan e'tibori, uning kelajagini chuqur anglab yetishi, shuningdek, milliy urf-odat va an'analardan samarali foydalanishga bog'liq. Tarbiyada talabchanlik, oiladagi o'zaro hurmat va mehr-oqibat, tinchlik va halol mehnat muhiti muhim pedagogik omillar sirasiga kiradi. Har bir oilada farzand tarbiyasi uchun aniq maqsad belgilanmog'i lozim. Bu nafaqat ularning oilaviy rollarini bajarishga, balki jamiyatning faol, vatanparvar, fidoyi va ongli a'zosi sifatida shakllanishiga xizmat qilishi kerak. Shunday qilib, barkamol avlodni tarbiyalashda ota-onalarning roli faqat nazoratchi emas, balki yo'l ko'rsatuvchi, tarbiyachi va hayotiy yo'lning yo'lbo'shchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Oilada doimo tinchlik bo'lishi, bo'sh vaqtini faol tashkil etish, madaniyat, san'at maskanlariga oilaviy sayohatlar uyushtirish - oila barkamolligini ta'minlashga xizmat qiladi. Oilada bolaning to'g'ri tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri tarbiyada hamjihatlikdir. Ta'lim tarbiya masalasi murakkab bo'lib, bunday ulkan mas'uliyatli, sharaflı ishni oila, mahalla, maktab va keng jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borish muhim o'rin egallaydi. Mahallaning ustunligi shundaki, bu yerda ko'p yillar davomida birga yashagan, bir birini bilgan, sinagan, tanigan kishilar istiqomat qiladilar. Ular har bir oiladagi muhitni va har bir bola tarbiyasini, ota-onasini mahallada tutgan o'rni, mavqei hamda imkoniyatlarni yaxshi biladilar.

Oila, mahalla, maktab hamkorligi rejasini tuzish:

➤ Tarbiyaviy ishlar o'tkazish dasturi va shu dastur asosida mahallada yashovchi har bir bola bilan bu tarbiyaviy ishlarni olib borish.

➤ Mahallada bolalar dam olishlariga, qiziqarli ishlar bilan shug'ullanishlariga imkoniyat yaratib berish.

➤ Mahallada tarbiyaning ta'sirini oshirish.

Kabi ko'plab ishlarni olib borish, o'quvchilarni har tomonlama axloqli tarbiya topishlariga keng imkoniyatlar yaratadi. Ta'lim va tarbiya sohasiga etiborni kuchaytirish bu borada hukumatimiz tomonidan qabul qilingan va hujjatlarni, ma'muriy ko'rsatmalarni samarali bajarish uchun oila, mahalla, maktab hamkorligi faoliyatini o'ziga xos pedagogik tizim, uslub va shakllariga ega bo'lishilari zarur. Utkazilgan tadbirlar har tomonlama puxta, shuning bilan qatnashganlarning yoshlariga mos pedagogik va psixologik mujassamlashtirgan, mantiqan teran, qiziqarli va ko'rgazmali, amaliy jihatdan qisqa va lo'nda estetik jihatdan keng ko'lamli bo'lishi kerak. Hamkorlikda olib borilayotgan ishlar mahalla hududidagi barcha yoshlarni qamrab olgan holda, ularning yoshlaridan, qiziqishlaridan kelib chiqib ularni foydali ishlarga yo'naltiriladi.

Bola tarbiyasida maktab o'rni ham juda beqiyosdir. Har bir bola maktab ostonasiga qadam qo'yar ekan, o'zining kelajakdagi qiladigan ishlarini jajji ongida tasavvur qiladi. Maktabda olgan bilimlari, ta'lim-tarbiyasi, bu ishlarning amalga oshishida albatta o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Oila, mahalla, maktab hamkorligida quyidagi tamoyillarga afnal qilinganida samaradorlik yanada yuqoriroq bo'ladi:

➤ ta'lim tarbiya jarayonida hamkorlik harakatlarining ish birligi

➤ tarbiyalanuvchiga xurmat va talabning uyg'unligi.

➤ hamkorlik jarayoni sub'ektlarning teng huquqliligi va yuksak mas'uliyati.

➤ ota-ona farzandining maktabgacha bo'lgan davrdagi jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash.

Bularning barchasi bolaning yetuk inson bo'lib voyaga yetishida muhim ahamiyatlardan biri hisoblanadi. Tarbiyaviy, tashkiliy, uslubiy ishlarni hayotga tatbiq etishda har bir fuqaro, oila, mahalla va maktab o'zining shart-sharoiti, atrof-muhitni taxlil qilib:

- o'quvchi, o'qituvchi, ota-ona;
- maktab, oila, mahalla, jamoatchilik;
- oila, mahalla, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab; yo'nalishlariga amaliy tarbiya ishlarini hayotga tatbiq etib va shu kun talabi darajasida targ'ibot ishlarini olib borilsa, natijada tarbiya masalalari bo'yicha ijobiy yutuqlarga erishish mumkin..!

Xulosa o'rnida shuni ma'lum qilamizki Yosh avlodni yaxshi xulqli, vatanga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga, harakteriga ahamiyat berish lozim. Chunki bularsiz tarbiyada ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Mahalla, maktab, oila hamkorligining ijobiy tomonlari shundaki - bolaning dunyoviy bilimga ega bo'lish, fikrlarning keng bo'lishi, noto'g'ri ta'sirlarga berilmasligi, uyda, maktabda bo'sh vaqtini unumli utkazishni taminlashga va xalqiga, jamiyatga foyda keltiradigan shaxs bo'lib ulg'ayishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Karimov. Barkomol avlod -O'zbekiston taraqqiyetining poydevori. T-1997y.
2. I.Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayet-pirovard maqsadimiz.T-2000y.
3. A.K.Munavvarov.Pedagogika.T-1996y.

4. A.K.Munavvarov.Oila pedagogikasi.T-1994y.

5. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Science and Education, 3(12), 590-592.